

OILADA FARZAND TARBIYASI

*Abduvasiyeva Xadisaxon Odilovna*

*Andijon viloyati Paxtaobod tumani*

*1-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

*E-mail: [abduvasiyevaxadisa@gmail.com](mailto:abduvasiyevaxadisa@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maktab ostonasiga oyoq qo'yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba'zi burchlarni, vaholanki, o'z shaxsi uchun zarur bo'lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o'tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko'paygan bo'ladi. Ya'ni u o'z obro'sini endi nafaqat oila a'zolari o'rtasida, aksincha, jamiyat o'rtasida oila obro'sini o'z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi.

**Kalit so'zi:** tarbiya, psixologik ta'sir, xususiyat

Oila kishini bir butun qilib ko'rsatadi. Xar bir insonni asosiy maqsadi farovon oila. Shunday holatda farzand tarbiyasi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xa oila qurib, kelajak uchun maqsad qilar ekan kishi o'zining ertangi kuniga zamin yaratadi.

Oilada farzand dunyoga kelishini kutar ekan asosan, ota ona mas'ul.

Tibbiyotda shu narsa isbotlab bermoqda va bu haqiqatga yaqin bo'lib kelmoqda, qaysiki farzand ko'rish uchun kamida xa kamida 3 oy davomida kishilar o'zini jisman va ma'nan tayyorlashi kerakligi aytilgan.

Bunda asosan( ruhiy zarba-stress, xavotir, siqilish, uyqudagi muammolar, kuchli jaxl, alam yoki g'azab) ruhiy xolat kabi vaziyatlardan o'zini ximoyalashi yoki davolashi bilan birinchi tayyorgarligini his qilishi kerak. Hissiy-irodaviy jarayonlarini kuzatib o'rganishi kerak. Shu o'rinda tana sog'lig'i birlamchi muhim jihati sanaladi.

Shu 3 oy tayyorgarlikdan so'ng bo'lgan homila uchun endi faqat parvarish, kunlik me'yoriy tartibga amal qilib, farzand to dunyoga kelishiga qadar yaxshi e'tiborli bo'lsa, albatta biz kutgan sog'lom bola dunyoga kelishi mumkin. Tarbiya xam shu homila davridan boshlanadi.

Xayotda ko'rib misollarni ko'plab keltirishim mumkin bo'ladi.

Masalan shu kunlardagi qarorlar ga e'tibor bersak , yosh oilalar ayollarining shanba va yakshanba kunlari dam olish kuni deb e'lon qilinishi. Unda qarshilik qilgan kishilarni javobgarlikka tortiladi deb aytilganligi va shu kabi mazmundagi qarorga kiritilgan so'zlar xam bejizga emas. Sababi yosh oilalar ota-onalari kelajak avlodga mas'ul tarbiyachi hamdir.

Yosh oilalar ajrimlari ham shu imkoniyatni yo'qligidan kelib chiqqan bo'lishi

ham mumkin ehtimol.

Kishilik jamiyatida insonni shaxs bo'lib shakllanishi uchun mustahkam asos boshlang'ich tarbiya hisoblanadi.

Tarbiyachi avvalo o'zi tarbiyali bo'lishi kerak.

Bu talablarimiz esa tarbiyachi (ota-ona, vasiy,..)larga o'z vaqtida qilingan e'tibor, manaviy ozuqa va ruhiy ko'mak berish orqali amalga oshiriladi

Homiladorlikning dastlabki kunlaridan boshlab e'tiborli bo'lsa va uning natijasida biz kutgan sog'lom bola dunyoga kelishi mumkin bo'ladi.

Homiladorlik davridan tarbiyasi borasida maslahatlar berish hamda ularni ehtiyojlari haqida o'rganib borish kerak.

Tarbiya eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xalqimizda bor bir iborani yana eslanadi, o'zi kimu bolasi kim bo'lardi.

Oilada farzand tarbiyasi muhim bo'lib, bunda ota-onalar birinchi navbatda ular namuna bo'lib kelgan. Bunda asosan oila a'zolari bilan muomala munosabatlari, ishchanlik xarakatlari, ilm-fan borasidagi ishlari. Ota-onalarning o'zlari bir biriga bo'lgan ishonchi va ularning vazifalari borasida namuna bolishi mumkin.

Xayotda asosan kishilar tarbiyani atrofdan olib mustahkamlab boradi.

Tarbiya berishda bolaning dunyoga kelishi bilan 5 yoshgacha erkin bo'lib xarakatlar qilishi uchun ko'maklashish kerak. 10 yoshgacha erkin bo'lib xarakatlar qilishini nazoratini kuchaytirish kerak. 16 yoshgacha o'zini farzandi uchun unga yaqin insoni, do'sti, g'amxo'ri, maslahatchisi,... bo'lib shakllanib borishi kerak. Shu bosqichda davom ettirish yanada samarali bo'ladi.

Bola judayam ziyrak va xushyor bo'lishini bilamiz, shuning uchun ham xar ishda ehtiyotkorlik yaxshi bo'ladi.

Bola ollohning ajoyib bir mo'jiza ne'matiki, oddiy holatni misol uchun go'dak tili xali ravon bo'lmagan vaqtida onani taqlid va namuna qiladi, ya'ni dasturxonga tortilgan yemaklarni birinchi marta ko'rishida e'tibor bermaydi toki onasi yeb ko'rsatib o'rgatmagunicha.

Xarakatlarida xam shunday, ona tashqariga chiqsa xam ichkarida bo'lsa xam shunday amallarni birgalikda qilib keladi.

Bu holat tarbiyaning ko'rib bilib olingan tomonlaridan biri.

Tarbiyani har doim oilada amalga oshirib kelinmoqda.

Ziyoli oilada tug'ilgan farzandlarni orasida ham ayrim hollarda tushunarsiz vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'ladi. Lekin vaqt davomida kishilar o'zini jisman qilgan xatolarini, o'zining oiladagi farovonlik va tarbiya darajasi bilan o'nglab oladilar.

Tarbiyachi amalda ko'rsatish bilan namuna bo'lib xarakat qilishi kerak.

Oilada ota-onalar bir biriga bo'lgan munosabatlarda juda ham e'tiborli bo'lishi, ya'ni otaning xatti harakatidan onaning ko'ngli to'qligini va uning fikriga qo'shilishini farzandlariga namuna bo'lib ko'rsatishi kerak.

Otaning ayrim hollarda qilgan kamchiligini va xatolarini tuzatishda farzandlar ishtirokisiz, va xuddi shu kabi onaning xam xatolarini tuzatishda farzandlar ko'zida qilmaslik tarbiyaning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Farzand xato qilsachi, bunda ota-onalar birinchi navbatda o'zining xatolarini kuzatishi kerak, yani men shu xato ekanligini uqtirganmidim, nimani xato bo'lishi xaqida ma'lumotlar berib borganmidim deb, o'zidan istashi to'g'ri bo'lishi ehtimol.

Yana bir iborani yodga olamiz. Xar bir ishni ortida uning kattasi bo'ladi (ishongani, suyangani, ota-onasi) deb aytilganligi va shu kabilarga qaratiladi. Bola xam boshqasi xam umuman insonni boshi bir devorga urulsa, qaytib shu yo'lga yurmaydi.

Shuning uchun ham eng qiyin ish bu tarbiyadir. Sababi xech kim bir ozdan keyin nima bo'lishini o'ylab ko'rmaganidek, bo'ladigan nohush holat avvaldan eslatma berishga yoki shunga o'hshash tarbiyaviy ko'rsatma berishga qodir emas.

Shuning uchun ham eng qiyin ish bu tarbiyadir, albatta biz ko'zlagan natijani ko'proq ilm va bilim orqali olamiz.

Avliyolar va ulamolar aytganidek kitob o'qigan kishilardan hech qachon yomonlik chiqmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz." - T.: O'zbekiston, 2017.
2. Oila psixologiyasi. Qo'llanma. Toshkent:2019. 302-b.
3. Ziyonet.uz